

QADIMIY TIBBIYOT MUASSASASI “DOR USH-SHIFO.”

*Xudoberdiyeva Shahnoza
magistrant KIMYO Universiteti
Nazarova Dinara PhD, dotsent TAQU*

Anatatsiya: Madrasa hozirgi kunda saqlanib qolmagan. Dor ush-shifo madrasasi Buxoro registoni oldida, Buxoro xonligida hukmronlik qilgan ashtarxoniy hukmdor Subhonqulixon tomonidan 1697-yilda bunyod etilgan. Ushbu madrasa Buxoro arki oldida bo‘lgan. Tadqiqotchi olim Abdusattor Jumanazarov ushbu madrasaga oid bir qator vaqf hujjatlarini o‘rgangan bo‘lib, madrasa bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirgan.

Key words : Bukhara , 17th century, state hospitals , designing methodology , modular network , graph reconstruction , building dimensions proportionality .Synopsis : Madrasa is present in the day preserved not left Dor ush-healing Madrasa Bukhara registry in front of Bukhara in the khanate rule did Ashtarkhani the ruler Subhonquli Khan built in 1697 by done This madrasa is Bukhara Arch in front was Researcher scientist Abdusattar Jumanazarov this to the madrasah about one series foundation documents learned with a madrasah depends data brought

Описание : Медресе присутствует. в день сохраненный не осталось Дор уш-исцеление Медресе Бухара реестр перед Бухарой в ханстве правило делал Аштархани линейка Субхонкули Хан построенный в 1697 году сделано Это медресе Бухара. Арка спереди был Исследователь ученый Абдусаттар Джуманазаров этот в медресе о один ряд фундамент документы научился с медресе зависит от данные принес

Kalit so‘zlar: Buxoro, 17-asr, davlat shifoxonalari, loyihalash metodologiyasi, modulli tarmoq, grafik rekonstruksiya, bino o‘chamlari mutanosibligi.

Key words: Bukhara, 17th century, state hospitals, design methodology, modular network, graphic reconstruction, proportions of building dimensions.

Ключ слова : Бухара , 17 век, государство больницы , проектирование методология , модульная сеть , график реконструкция , строительство размеры пропорциональность .

Kirish.

Mamlakatimiz hududida qadimda yashagan xalqlarning tibbiyoti haqidagi dastlabki yozma ma’lumotlarni zardushtiyalar kitobi “Avesto”dan topamiz. Uning “Vendidat” bobida yozilishicha, birinchi bo‘lib Trita ismli kishi tabiblik bilan shug‘ullangan. Muqaddas islom dini mintaqamizga kelganidan so‘ng uning ta’sirida XI asrda faoliyat ko‘rsatgan Xorazm Ma’mun akademiyasida zamonasining mashhur


olimlari, jumladan, Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq al-Ja'diy, Abulkayr ibn Hammor, Abu Sahl Iso ibn Yahyo al-Masihiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Ahmad ibn Miskavayh va boshqalar bo'lgan. Bu olimlar Yunoniston, Yaqin va O'rta Sharq, Hindistonning ilm-fandagi yutuqlarini ijodiy, tanqidiy o'rganib, uni yanada yuksak bosqichga ko'targan. Sharq mamlakatlarida "Shayx ur-rais" (donishmandlar sardori) nomi bilan, G'arbda esa Avitsenna sifatida mashhur. Buyuk allomaning "Tib qonunlari" asari Yevropa universitetlarida bir necha asr mobaynida darslik sifatida qo'llangan. "O'zbekiston hududida qadimda ham tibbiyot birlashmalariga o'xshash davolash maskanlari mavjud bo'lgan. Amir Temur boshqa mamlakatlarning mashhur tabiblarini poytaxt Samarqandga olib kelib, maxsus shifoxonalar ochgan. Movarounnahr va Xurosonda shifoxonalar uchun alohida binolar qurilgan. Keyingi temuriyzodalar davrida shifoxonalar ochishga Alisher Navoiy ham katta ahamiyat bergen. Shayboniylar boshqaruvi davrida ham mazkur soha yuksak taraqqiy etgan. Turkistonning ba'zi viloyatlarida maxsus shifoxonalar bo'lganligi manbalarda qayd etilgan. Turkiston chor Rossiysi tomonidan bosib olinganidan keyin o'lkada G'arbgaga xos tibbiy muassasalar vujudga kelgan. Bunga qadar mahalliy aholi xalq tabobati (tabiblar, shikastbandlar)dan foydalangan. Toshkentda birinchi davolash muassasasi 1868 yilda harbiy garnizon qoshida ochilgan lazaret bo'lib, u 1869 yilda harbiy gospitalga aylantirilgan.¹ Keyinchalik Samarqandda (1872), Xivada (1872), Buxoroda (1891) kichikroq kasalxonalar ishga tushirilgan. 1883-yil oxirida Toshkentda ayollar va bolalar uchun birinchi ambulatoriya-shifoxona ochilgan. 1903-yilga kelib esa, Yangi shahar aholisi uchun alohida kasalxona qurilib foydalanishga topshirilgan. 1913-yilda Eski shahar kasalxonasi (hozirgi 1-shahar klinik davolash kasalxonasi) ish boshlagan. 1916-yilda temir yo'l xodimlari uchun maxsus tibbiy davolash muassasasi tashkil etilgan. 1918-yilga kelib esa sobiq kadetlar korpusi binosida davolash muassasasi (hozirgi 1-ToshTIning o'quv bazasi), 1926-yilda Toshsovet nomli fizioterapiya kasalxonasi; Ko'kcha dahasida epidemiologiya kasalxonasi (hozirgi 1-Yuqumli kasalliklar shifoxonasi) faoliyatini boshlagan. Temuriylar davrida ham tibbiyot rivojiga katta ahamiyat berilgan. Masalan, Samarqandda "Dor ush-shifo" Davlat shifoxonalari binolari "bemoriston" yoki "dor ush-shifo" deb atalgan bo'lsa, davolash markazlari "medresoyi dor ush-shifo" deb atalgan.

Asosiy qisim.

Madrasa hozirgi kunda saqlanib qolmagan. Dor ush-shifo madrasasi Buxoro registoni oldida, Buxoro xonligida hukmronlik qilgan ashtarxoniy hukmdor Subhonqulixon tomonidan 1697-yilda bunyod etilgan. Ushbu madrasa Buxoro arki oldida bo'lgan. Tadqiqotchi olim Abdusattor

¹ <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3154/3012>


Jumanazarov ushbu madrasaga oid bir qator vaqf hujjatlarini o‘rgangan bo‘lib, madrasa bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirgan. Vaqf hujatida madrasa pishiq g‘ishtdan qurilgan deb ko‘rsatilgan. Madrasa gumbaz va ravoqlari, tib ilmi o‘qitiladigan dars xonasi, ichki va tashqi hovlisi, yozgi masjidi va darsxonasi mavjud bo‘lgan. Madrasa g‘arb tomonida ko‘cha, shimolida vaqf yer va hoji Baqo ibn mulla Ibodulla hovlisi, sharq tomonida Ark qal’asi, janubida esa Ark arig‘i joylashgan edi. Madrasa Jilovxona guzari^[1] hududida bo‘lgan Dor ush-shifo madrasasida maxsus maktabxona ham mavjud bo‘lgan. U yerda asosan yosh bolalar o‘qitilgan. Sho‘rolar inqilobiga qadar ushbu madrasada mulla Abdurahmon Tamkin Buxoriy mudarris bo‘lgan. Dor ush-shifo madrasasida banoras to‘nli mudarris dars bergan. Ushbu madrasada mulla Abdurahim, mulla Ahmadxoja va mulla Shamsiddin mudarris sifatida faoliyat yuritgan. Bundan tashqari ushbu madrasaga oid vaqf hujjatlarida talabalar to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan^[2]. Sadri Ziyo ushbu madrasada 15 ta hujralar bo‘lganligini yozib qoldirgan^[3]. Dor ush-shifo madrasasi 18 ta hujradan iborat bo‘lgan. Ushbu madrasa O‘rta Osiyo me’morchiligi uslubida bunyod etilgan. Madrasa pishiq g‘isht, yog‘och, tosh va ganchdan qurilgan.²




1-rasm. XIX asrning 70-yillarida Buxoro ark va Registon. Suratning chap tomonida “Madraseyi dor ush-shifo” binosining bir qismi ko‘rinadi.


(Shifo maskani) nomli yirik shifoxona bo‘lib, unga o‘z zamonasining taniqli tabibi — Mir Sayid Sharif Sheroyi rahbarlik qilgan. Shu davrda Samarcandda boshqa mashhur tabiblar, jumladan, Mansur ibn Muhammad, Mavlon Fayzulloh Tabriziy va Hisobiddin Ibrohim Kirmoniy faoliyat olib borgan.

²https://uz.wikipedia.org/wiki/Dor_ush-shifo_madrasas i



2-rasm. "Madraseyi dor ush-shifo"ning Buxoro Registonida joylashgani.





4-rasm. Dor ush-shifo ning kampyutr ishlansasi.

Subhonqulixon tibbiyot punkti Rossiya chor qo'yshinlari tomonidan Buxoro shahrini bosib olishdan oldin faoliyat ko'rsatgan. Balki u qisman faoliyat ko'rsatgandir, ammo ma'lumki, XIX asrning 30-yillarida "Madraseyi dor ush-shifo" binosi hududini tozalash ishlari munosabati bilan butunlay vayron qilingan va yer yuzidan olib tashlangan. Buxoro Registoni.

Xulosa

Butun dunyo xamjamiyatida inson sog'lig'ini saqlash masalasi muhim o'rinni aks etadi. Bu rivojlangan mamlakatlar misolida yirik tibbiyot muassasalarini tashkil etilishi, ularni barcha funksilarini qulayligini memoriy-fazoviy, lanshaft, energiyasamaradorlik tomonidan to'g'ri tashkil etilganligi bularning samaradorligini belgilaydi. Bugungi kundagi rivojlanishga albotta tarixdan shakillangan qator inshaotlar asosdir. Bobo kalonimiz Amir Temur davridan rivojlanishni boshlagan tibbiyot inshaotlari ham ko'p zamonlar tasiri o'laroq rivojlanmoqda. Buxoro viloyatida joylashgan va bizgacha saqlanib qolmagan do rush shifo madrasasi ham ko'p zamonlar tibbiyot ilmi insonlar sog'ligi uchun hizmat qilgan. Buxoro viloyat davlat arxivi saqlovidagi fond-1023, ro'yxat-1, 180-raqamli yig'majildda O'zbekiston SSR xalq komissarları soveti tomonidan 1944-yil 23-noyabr sanasida tasdiqlangan hujjat esa tibbiyot inshaotlari tarixam muhim inshaotlar xisoblanganini anglatadi .

Foydalanga adabiyotlar:

1. Muhammad A., Ahmad M. Xazora islom.- Toshkent, 2004 y.
2. Uralov AS O'rta asrlar markaziy davolash va davolash muassasalari arxitekturasi Osiyo va chet eldag'i musulmon Sharqi mamlakatlari. – Samarqand, 2004 yil.

3. Shishkin V.A.Buxoroning meymoriy yodgorliklari.-Toshkent, 1936 y.
4. Liebknecht KO Markaziy Osiyo uchun kichik tibbiy binolarni loyihalash. - Kitobda: Bolalar bog'chalari va tibbiyot binolari.- Moskva, 1947 yil.
5. Baklanov N.B. XVI asr oyzbek ustasining meymoriy chizmalari.- Toiplamda: Arxitektura tarixi va nazariyasi instituti toiplami. 4-jild.-Moskva, 1944 yil
6. Kryukov K.S. Arxitekturadagi nisbatlar.-Toshkent, 1995 yil.
7. O'ralov A. Arxitektura shakllarini uyg'unlashtirish va bezash. - Samarqand, 2003 yil.
8. ASUralov, Elina Mohd Husini. Arxitektura shakllarini uyg'unlashtirish, bezash va yorug'lik. -Malayziya, 2021 yil